



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
6-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<i>Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<i>Omonova Nilufar Parda qizi</i>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<i>Xujanova Shaxina Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
<i>Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</i>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</i>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<i>Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna</i>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<i>Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi</i>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<i>V. Sh. Raximov</i>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
<i>Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</i>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
<i>Vasila Yusupova</i>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
<i>B. X. Sharopov</i>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
<i>Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</i>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<i>J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<i>S. A. Qarshiboyev</i>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<i>Suyunov Rustam Sadriddinovich</i>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingivistik xususiyatlari	78
<i>Teshaboyeva Mohichexra Sohijon qizi</i>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<i>S. S. Qulmurodova</i>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<i>Makhmudova Ugliyol Bakhtiyorovna</i>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review)	95
Burkhonova Zarafruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'liqin qizi	
Elektir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari ..	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatsdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
Mirzayeva Nigora Bozorovna	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi, Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
Ramazonova Munisa Hoshim qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
S. A. Rahmonberdiyev	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
Xasanova Marxabo Turayevna	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
Абдукадирова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
Гульнора Ахтямовна	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
Коршубаева Рано Хазраткуловна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlar (son, shakl, o'lcham, fazoviy munosabatlar)ning psixologik-pedagogik xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari	325
Bibizaynab Otaxo'jayeva	
Ertaklarni rollarga bo'lib o'qish orqali o'quvchilarda boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirish	328
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, Narkabilova Gulnoza Po'latovna	
Jadid ayollari fenomenining tarixiy va intellektual mohiyati	332
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi	

ERTAKLARNI ROLLARGA BO'LIB O'QISH ORQALI O'QUVCHILARDA BOSHQARUVCHANLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi

FarDU Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi
2-kurs magistranti

Narkabilova Gulnoza Po'latovna

FarDU Filologiya fanlari doktori, DSc

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar shaxsini shakllantirishning dolzarb muammosi - boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan ertaklarni rollarga bo'lib o'qish metodi-kasining pedagogik salohiyati empirik va nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar o'quvchilarda o'z-o'zini idora qilish, mas'uliyatni anglash va jamoa ichida yetakchilik qilish qobiliyatlarining ushbu metod orqali muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: boshqaruvchanlik, ertak terapiyasi, rolli o'yinlar, kognitiv rivojlanish, liderlik, ijtimoiy intellekt, ta'limiy muhit, mas'uliyat.

Abstract: The article addresses an urgent issue in primary education - the development of management abilities as a key component of students' personality formation. The author provides empirical and theoretical justification for the pedagogical potential of the role-based fairy tale reading methodology. Data collected during the study confirms that skills of self-regulation, responsibility awareness, and collective leadership can be successfully cultivated through this approach.

Key words: management skills, fairy tale therapy, role-playing games, cognitive development, leadership, social intelligence, educational environment, responsibility.

Аннотация: В статье рассматривается актуальная проблема формирования личности учащихся на начальной ступени образования - развитие управленческих способностей. Автор обосновывается педагогический потенциал методики чтения сказок по ролям с эмпирической и теоретической точки зрения. Собранные в ходе исследования данные подтверждают, что навыки саморегуляции, осознание ответственности и лидерство в коллективе успешно формируются у учащихся посредством данного метода.

Ключевые слова: управленческие способности, сказкотерапия, ролевые игры, когнитивное развитие, лидерство, социальный интеллект, образовательная среда, ответственность.

KIRISH

Milliy ta'lim tizimini yangilash jarayonida o'quvchilarda faqat akademik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanish yetarli emas. Bugungi raqobatbardosh muhit shaxsdan ancha kengroq kompetentsiyalarni - o'z xulq-atvorini anglab boshqarish, guruh ichida faol rol o'ynash va murakkab qarorlar qabul qila bilish ko'nikmalarini talab qilmoqda. Ushbu talablar pedagogika fanining kun tartibiga tamoman yangicha vazifalar qo'yadi.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz rahbariyati yosh avlodni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash zaruriyatini doimo ta'kidlaydi ^[1]. Bu maqsadlarga erishishda an'anaviy o'qitish metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar voqelikni asosan obrazlar va his-tuyg'ular orqali idrok etadilar. Binobarin, ularga abstrakt tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri tushuntirish ko'pincha samarali bo'lmaydi. Xalq ertaklari esa bola ongiga eng tabiiy yo'l bilan kirib boruvchi, murakkab axloqiy va ijtimoiy g'oyalarni sodda syujet orqali yetkazuvchi noyob vositadir. Mazkur tadqiqotda ertaklarni rollarga bo'lib o'qish metodikasi boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida o'rganiladi va amaliy jihatdan asoslanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bola rivojlanishida o'yin va badiiy faoliyatning o'rnini o'rganish pedagogik psixologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. O'tgan asrning o'rtalarida rus psixologiyasi maktabida shakllangan nazariyalar bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Xususan, bola ijtimoiy muhitda faol ishtirok etmasa, uning intellektual kamoloti to'liq kechmasligini isbotlovchi tadqiqotlar keyingi o'nlab yillar davomida ham muttasil tasdiqlanib kelmoqda ^[3].

O'yin orqali o'qitish (play-based learning) konsepsiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab g'arb pedagogikasida ham mustahkam o'rin egalladi. Ushbu yondashuv bolaning o'quv jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Tadqiqotchilar rolli o'yinlar vaqtida bolaning o'z yoshidan yuqori darajadagi ijtimoiy vazifalarni uddalay olishi hodisasini alohida qayd etishadi. Aynan shu xususiyat mazkur metodning boshqaruvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi salohiyatini ochib beradi ^[3].

Bolaning bilish faoliyati yosh xususiyatlariga ko'ra bosqichma-bosqich rivojlanadi. Maktab yoshiga to'lgan o'quvchi muayyan mantiqiy amallarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlar iyerarxiyasini - kim rahbarlik qiladi, kim ijro etadi - bevosita tajriba orqali anglab yetadi. Bu davrdagi rolli o'yinlar bolaga ijtimoiy rollarni xavfsiz muhitda sinab ko'rish, xato qilish va undan saboq chiqarish imkonini beradi ^[5].

O'zbek pedagogika fanida ham bu yo'nalishda qimmatli ishlar amalga oshirilgan. Mahalliy tadqiqotchilar ertak va milliy o'yinlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratishgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkin: ertakdagi voqealar ketma-ketligi bolaga har bir xatti-harakatning o'z oqibatini keltirib chiqarishini ko'rsatadi va shu tariqa sabab-oqibat munosabatlarini anglash qobiliyatini mustahkamlaydi ^[4]. Bu esa o'quvchida boshqaruv qarorlarini ongli qabul qilish malakasining poydevorini qo'yadi.

Normativ jihatdan ham mazkur yo'nalish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2024-yilda qabul qilingan tegishli qonunchilik hujjati ta'lim muassasalarida teatr san'ati elementlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishni rag'batlantirishni alohida vazifa sifatida belgilagan ^[2]. Bu qaror sahnalashtirish usullari asosida o'qitishning huquqiy zaminini kengaytirdi va maktab amaliyotida ushbu metodikani joriy etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Boshqaruvchanlik qobiliyatining tarkibiy modeli

Tadqiqot davomida boshqaruvchanlik qobiliyatining uch asosiy tarkibiy qismi aniqlandi.

Birinchisi - o'z-o'zini idora qilish ko'nikmasi. O'quvchi u yoki bu qahramonni tasvirlar ekan, tanlagan obrazning xulq-atvor doirasida qolishi shart. Bu majburiyat bolaning impulsiv, o'ylanmagan harakatlarini cheklashga, o'zini nazorat qilishga o'rgatadi. Jarayon tashqaridan qo'yilgan qat'iy talablar orqali emas, balki ichki motivatsiya - rolni yaxshi ijro etish istagi - orqali amalga oshganligi sababli, bola uchun tabiiy va qulay kechadi.

Ikkinchi tarkibiy qism - muloqot orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyati. O'yinda nutq shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki jamoani boshqarish, hamkasblarni muayyan yo'nalishga undash va o'z maqsadiga erishish uchun ishlatiladi. O'quvchi amalda gapirish va ishonitirish san'atini o'rganadi.

Uchinchi qism - yetakchilik salohiyati. Bosh qahramonni ijro etayotgan bola voqealar rivojini o'zi boshqaradi, qiyinchiliklardan chiqish yo'lini izlaydi, guruhga yo'nalish beradi. Bu tajriba bolada mas'uliyat va tashabbuskorlik tuyg'usini uyg'otadi.

2. Amaliy metodika: bosqichlar va mazmun

Tadqiqot jarayonida ertaklarni rollarga bo'lib o'qishning uch bosqichli pedagogik modeli ishlab chiqildi va bir o'quv yili davomida turli sinflarda sinab ko'rildi.

Birinchi bosqich - tayyorgarlik va tahlil. O'quvchilar ertakni o'qib chiqqach, har bir qahramonning xususiyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini guruh bo'lib muhokama qiladilar. O'qituvchi ulardan qahramonlarni tanlab, tanlash sabablarini asoslab berishni so'raydi. Bu bosqich bolada tahliliy fikrlash va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ikkinchi bosqich - ijro va improvizatsiya. O'quvchilar rollarga bo'linib, ertakni sahnalashtiradilar. O'qituvchi ma'lum bir nuqtada tanish syujetga o'zgartirish kiritishni taklif qiladi. Masalan: "Agar asosiy qahramon bu vaziyatda boshqacha yo'l tanlasa nima bo'lardi?" Bunday savol bolani standart fikrlash doirasidan chiqarib, muqobil imkoniyatlarni ko'rishga majbur qiladi. Bu zamonaviy boshqaruvda "zaxira strategiya" deb ataladigan ko'nikmaning maktab yoshiga moslashtirilgan modeli hisoblanadi.



Uchinchi bosqich - refleksiya va o'z-o'zini baholash. Sahna tugagach, har bir o'quvchi o'z rolini qanday ijro etganini tahlil qiladi: nimalarni to'g'ri qildi, qayerda qiynaldi, nima o'zgartirishi kerak edi? Bu bosqich bolada o'z-o'zini ob'ektiv baholash va xatolardan saboq chiqarish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Quyida o'zbek xalq ertaklari asosida tuzilgan qahramonlar rollari va shakllanadigan boshqaruv sifatlari tahlili keltirilgan:

1-jadval: **Ertak qahramonlari rollari va shakllanadigan boshqaruv sifatlari**

Ertakdagi rol	Boshqaruvchi funksiyasi	Shakllanadigan qobiliyat
Bosh qahramon (Lider)	Strategik rejalashtirish	Muammoli holatda yechim izlash, guruhni umumiy maqsad sari safarbar eta olish.
Yordamchi personajlar	Vazifalarni taqsimlash	Jamoaviy mas'uliyatni adolatli bo'lishish, hamkorlik asosida ishlash malakasi.
Salbiy qahramonlar	Inqiroz holatini boshqarish	To'siq va qiyinchiliklarni tahlil etish, ularga nisbatan samarali qarshi chora ko'rish.
Muallif (Moderator)	Umumiy jarayonni nazorat qilish	Voqealar oqimini kuzatib borish, tartib va mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlash.

3. "Ziyrak dehqon" ertagi: amaliy keys tahlili

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan darslardan biri ayniqsa e'tiborga loyiq natijalar ko'rsatdi. O'quvchilar dehqon rolida podshohning murakkab savollariga javob izlash jarayonida tashabbus, tezkor fikrlash va bosimli sharoitda qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni amalda mashq qildilar. Bu ko'nikmalar ilmiy adabiyotda "intellektual boshqaruv" va "stress sharoitida qarorlar qabul qilish" sifatida tavsiflanadi.

Sinov darslari davomida o'qituvchi o'quvchilarga syujetni o'zlari o'zgartirish imkoniyatini berganda, bolalar faolligining keskin ortishi kuzatildi. Ular o'z taklif va g'oyalarini bayon qilar ekan, nafaqat nutq madaniyatini, balki boshqalarni tinglab, ularning fikrlarini o'z bahosi bilan birlashtirish qobiliyatini ham namoyish etdilar. Shunday qilib, ertak syujeti bolalar uchun bir xildagi shunchaki o'yin emas, balki ijtimoiy tajribaning muhim manbaiga aylandi.

4. Pedagogik kuzatuv natijalari

Metodik tadqiqot yakunlarida o'quvchilar faoliyatidagi sifat o'zgarishlar uchta asosiy ko'rsatkich bo'yicha baholandi.

Birinchi ko'rsatkich - emotsional boshqaruv. Metodika qo'llanilgandan keyin o'quvchilarning deyarli uchdan ikki qismi ziddiyatli vaziyatlarda sabrli va mulohazali munosabat bildira boshladi.

Ikkinchi ko'rsatkich - nutqiy ta'sirchanlik. Bolalar o'z fikrini jamoat oldida aniqroq, dalillangan tarzda ifodalay oldi.

Uchinchi ko'rsatkich - guruhda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. O'quvchilar berilgan topshiriqni oxirigacha bajarish zarurligini yanada chuqurroq his eta boshladi.

Ushbu natijalar sahnalashtirish elementlari asosidagi o'qitishning oddiy o'yin mashg'ulotidan tubdan farq qilishini isbotlaydi. Bola bir vaqtning o'zida ham faol ijrochi (subyekt), ham o'z roliga qo'yilgan talablarning ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikki tomonlama holat uning ijtimoiy intellektini, ya'ni o'zini va boshqalarni tushunish hamda boshqarish qobiliyatini jadal rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ertaklarni rollarga bo'lib o'qish metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirishning samarali pedagogik yo'nalishi hisoblanadi. Bu metod an'anaviy dars shaklidan tubdan farq qilib, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga, ijrochidan yo'naltiruvchiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: birinchidan, mazkur metodika qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, guruh bilan hamkorlik qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi; ikkinchidan, improvizatsiya va refleksiya bosqichlari bolada mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish layoqatini rivojlantirishga alohida hissa qo'shdi; uchinchidan, milliy ertak syujetlari asosida ishlash o'quvchilarda xalqimizning axloqiy-ma'naviy qadriyatlari bilan uyg'un liderlik fazilatlarini tarbiyaladi.



Pedagog amaliyotchilar uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- erlarni tanlashda nafaqat milliy, balki jahon xalqlari og'zaki ijodidan ham foydalanish;
- har bir dars tsiklini refleksiya bosqichi bilan yakunlash;
- o'quvchilarning rol tanlashdagi mustaqilligini rag'batlantirish;
- sahnalashtirish natijalarini sinf jurnali orqali tizimli qayd etib borish.

Ushbu tavsiyalarga amal qilinsa, metodika nafaqat alohida dars shaklida, balki uzoq muddatli ta'limiy dastur sifatida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - B. 154.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi "Teatrlarning jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotidagi o'rnini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-399-sonli qarori // lex.uz.
3. Выготский Л.С. Игра и её роль в психологическом развитии ребёнка // Вопросы психологии. - 1966. - № 6.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: "Tafakkur sarchashmalari", 2013.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - Routledge, 2001.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2024-yil 30-sentabr // president.uz.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.